

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMİY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMİY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

XUSHMURODOV JOBIR PANJIYEVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING AGROEKOLOGIK HOLATI,
MOSH VA LOVIYA EKINLARIDA OG‘IR METALLARNING
AKKUMULYATSIYASI
(Nurobod tumani tuproqlari misolida)**

06.01.04-«Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственных наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agriculture sciences**

Xushmurodov Jobir Panjiyevich

Sug‘oriladigan tuproqlarning agroekologik holati, mosh va loviya ekinlarida og‘ir metallarning akkumulyatsiyasi (Nurobod tumani tuproqlari misolida) ... 3

Хушмуродов Жобир Панжиевич

Агроэкологическое состояние орошаемых почв, аккумуляция тяжелых металлов в растениях маша и фасоли (На примере почв Нурабадского района) 21

Khushmurodov Jobir Panjiyevich

Agroecological state of irrigated soils, accumulation of heavy metals in mung bean and bean plants (on the example of soils in the Nurabad region) .. 40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMİY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMİY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

XUSHMURODOV JOBIR PANJIYEVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING AGROEKOLOGIK HOLATI,
MOSH VA LOVIYA EKINLARIDA OG‘IR METALLARNING
AKKUMULYATSIYASI
(Nurobod tumani tuproqlari misolida)**

06.01.04-«Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Qx1251 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining veb-sahifasida (<http://www.soil.uz>) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Xusniddin Nagimovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Sanaqulov Akmal Lapasovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Sh Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti

Karimberdiyeva Amina Azimovna

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Yetakchi tashkilot:

Sh.Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti

Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21 05 soyat 10:00 dagi majlisida bo'slib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz)

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (84-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 05 06 kuni tarqatildi.

(2025-yil 05 06 dagi 6 -raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.M.Bobomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Y.Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminarga raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Bugungi kunda «dunyo miqyosida kimyoviy vositalardan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida tuproq unumdarligi xususiyatlaridan agrokimyoviy xossalari va ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning hosildorligi kamayishi va uning sifat tarkibi buzilishiga olib kelmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarining janubiy-sharqiy qismidagi shahar atrofi tuproqlarida kadmiy 5,5%, mishyak 13,5%, qo‘rg‘oshin 10,6% darajada ruhsat etilgan me’yordan ortiqligi kuzatilgan»¹ bo‘lsa «Yevropadagi qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan jami 137 000 km² yer maydonida, ya’ni 6,24 foizi toksikantlar bilan zararlangan bo‘lib, bu hududlarda tuproq ekologik holati, agrokimyoviy xossalari va tuproq unumdarligini qayta tiklash choralari ko‘rilayotganligi ham beziz emas»². Shuning uchun ham tuproq qatlamlarida toksikantlarning to‘planishini aniqlab, qishloq xo‘jalik ekinlari chidamliliginini hisobga olgan holda joylashtirish, zararlangan tuproqlarning ekologik holati va agrokimyoviy xossalari yaxshilash orqali mineral o‘g‘itlarni samarali qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda tuproqning toksik moddalar bilan ifloslanishini oldini olish, zararlanish holatini hisobga olib ekinlarni joylashtirish va ekologik toza, sifatli oziq-ovqat ekinlari yetishtirish bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarda keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, toksikantlarni tuproq xossalari salbiy ta’sirini tadbiq qilish, ifloslanish holatini baholash, tuproq xossa-xususiyatlariga va qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinadigan hosil hamda sifatiga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning sug‘oriladigan yerlarida sodir bo‘layotgan salbiy degradatsiya jarayonlarini, ularning sabablarini atroficha o‘rganish, mavjud muammolarni ilmiy asoslangan yechimlarini topish, tuproqlar degradatsiyasi, ayniqsa, og‘ir metallar va boshqa toksik moddalar bilan ifloslanish, sho‘rlanish jarayonlarining oldini olish, sodir etilayotgan oqibatlarni bartaraf etish, sug‘oriladigan yerlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tuproqlar unumdarligi va mahsuldorligini oshirish, kimyoviy moddalar bilan ifloslangan yerlardan ham to‘g‘ri va oqilona foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida «...tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minalash tizimini takomillashtirish»³ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligida mavjud sug‘oriladigan tuproqlarning agroekologik holatini va uning ifloslanish manbasini aniqlash, ularni salbiy ta’sirini yumshatish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8834334/>

² <https://www.sciencedirect.com/science/article>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-fevraldagagi VM-97-son «Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’oriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘oriladigan tuproqlarning genetik qatlamlarida toksik elementlarning to‘planishi, ularning migratsyasi, qishloq xo‘jalik ekinlarida to‘planishi, xalq xo‘jaligidagi zarari bo‘yicha xorijlik olimlaridan Ю.Н.Водянский, А.Ф.Титов, С.Л.Давыдова, А.М.Семушев, Е.В.Алексеев, А.П.Виноградов, В.В.Добровольский, В.К.Лукашёв, Л.И.Дал, В.В.Илин, А.Кабата-Пендияс, Б.Габара, Е.Голашewska, hamda respublikamiz olimlaridan X.T.Riskiyeva, Sh.T.Xoliquulov, X.Tursunov, G’.Yuldashev, T.Abdraxmanov, X.N.Karimov, Z.A.Jabborov, S.A.Nizamov, Z.Z.Uzakov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, bugungi kunga qadar tuproqlar tarkibidagi toksik ta’sir etuvchi metall ionlarining qishloq xo‘jaligi, xususan, mosh va loviya ekinlarining organlari bo‘yicha akkumulyatsiyalanishi, ekinlarning turiga hamda metall ionlarini kam yoki ko‘p miqdorda bo‘lishiga bog‘liq holda o‘zlashtirilishi, ularning toksiklik darajasiga bog‘liq urug‘larning unib chiqishiga bir yoki bir qancha metal ionlarining ta’siriga qaratilgan ilmiytadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-201906147-raqamli «Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan ekin maydonlarining toksik moddalar bilan zaharlanish darajasidan kelib chiqib 3D kartasini tuzish va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish» (2020-2023-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mosh va loviya ekinlarining qismlari toksik elementlarning tuproqdan o‘zlashtirish miqdorlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning mexanik tarkibi, meliorativ holati va agrokimyoviy xossalari aniqlash;

dala tajribasi tuprog‘ini va sug‘orish suvlari tarkibidagi og‘ir metallar miqdorini aniqlash;

mosh va loviya ekinlarining urug‘lari unib chiqishiga og‘ir metallarning ta’sirini aniqlash;

mosh va loviyaga maqbul me’yorda mineral o‘g‘itlarni qo‘llash orqali og‘ir metal ionlarining akkumulyatsiyasini o‘rganish;

toksik elementlarning to‘planishi va ekinlarning qismlari bilan chiqib ketish miqdorini aniqlash;

hudud tuproqlarining og‘ir metallar bilan ifloslanishi bo‘yicha ekologik va agrokimyoviy kartogrammalarini tuzish.

Tadqiqot ob‘yekti Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproq, mineral o‘g‘itlar, toksik ta’sir qiluvchi Cr, Ni, Cd, Co, Pb, Cu, Zn elementlar hamda moshning «Durdon» va loviyaning «Navro‘z» navlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tuproq, o‘simglik va suv tarkibida og‘ir metallar, tuproqning agrokimyoviy xossalari, mexanik tarkibi, sho‘rlanish va zaharli tuzlar miqdori, oziqa elementlar balansi, ekologik va agrokimyoviy kartogrammalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar agrokimyo va tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral ishlarning standart uslublari bo‘yicha amalga oshirildi, izlanishlarda «Агрохимические методы исследования почв, растений и удобрений», «Методические рекомендации по мелиорации солонцов и учету засоленных почв», «Методические указания по определению тяжелых металлов в почвах сельхозугодий и продукции растениеводства», «Санитарные правила и нормы (СанПИН), гигиенические нормативы и перечень методических указаний и рекомендации по гигиене питания», Dala tajribalarini o‘tkazish uslublaridan foydalanildi, mikrovegetatsion tajriba «Миниатюра» Нейбайер tajribasi Голодковский томонидан qayta ishlangan laboratoriya tahlillari asosida olib borildi, olingan ma’lumotlarning matematik statistik tahlili Б.А.Доспеховning «Методика полевого опыта» uslubiy qo‘llanmasi va «Microsoft Excel» kompyuter dasturi yordamida amalgalashirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mikroelementlarning va og‘ir metallarning ko‘p mobilizatsiyalanishi sho‘rlanish ximizimiga, tipiga, zaharli tuzlar zaxirasiga bog‘liqligi asoslangan;

loviya va mosh ekinlari qismlarida toksik elementlarning o‘zlashtirish qatori (Cr, Ni, Cd, Co, Pb, Cu, Zn element ionlari ildiz→poya→barg→don) aniqlangan;

og‘ir metallarning va mikroelementlarning ruxsat etilgan meyordan yuqori bo‘lishi mosh va loviya ekinining unuvchanligiga 5-7 kunga salbiy ta’sir etishi aniqlangan;

loviya va mosh ekinlari tuproqdan ionlarning REM dan 5 barobardan yuqori bo‘lganda Cu elementining akkumulyatsiya qilinishi Co, Pb, Cd elementlariga nisbatan yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Toshquduq» massivi sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarini 1:5000 masshtabli agroximkartogrammalarini ishlab chiqilgan;

«Toshquduq» massivi sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarining 1 metrli qatlampagi harakatchan shakldagi mis, qo‘rg‘oshin, kadmiy hamda xrom elementlarini miqdorlarini aks ettiruvchi 1:5000 masshtabli ekologik kartalari ishlab chiqilgan;

Cr, Ni, Cd, Pb, Cu, Co, Zn elementlari REMdan 3-5 barobar ifloslangan tuproqlarda mosh va loviya ekinlari ekib, parvarishlanganda tuproqda 1-1,5 barobargacha kamayganligi kuzatilgan.

sug‘oriladigan och tuchli bo‘z tuproqlarning og‘ir metallar bilan ifloslanishini oldini olish va tuproqdag‘i miqdorini kamaytirish hamda ifloslanish darajasiga ko‘ra dukkakli ekinlarni joylashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining laboratoriya va dala tajribalari asosida sohada umum qabul qilingan usullar orqali bajarilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, TATIning maxsus tashkil etilgan aprobatsiya komissiyasi tomonidan har yili ijobiy baholanganligi, qo‘yilgan vazifalarga hamda tuproqning agrokimyoviy xossalariqa kompleks yondoshilganligi, ma’lumotlarga matematik-statistik ishlov berilganligi, olingan ma’lumotlarni respublika va xalqaro konferensiyalarda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan e’tirof etilgan nufuzli xorijiy va respublika jurnallarida chop etilganligi natijalarning ishonchlilagini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mikroelementlarning va og‘ir metallarning ko‘p mobilizatsiyalanishi sho‘rlanish ximizimiga, tipiga, zaharli tuzlar zaxirasiga bog‘liqligi, loviya va mosh ekinlari qismlarida toksik elementlarning o‘zlashtirishi, og‘ir metallarning va mikroelementlarning ruxsat etilgan meyordan yuqori bo‘lishi mosh va loviya ekining unuvchanligiga 5-7 kunga salbiy ta’sir etishi, loviya va mosh ekinlari tuproqdan ionlarning REM dan 5 barobar yoki undan yuqori bo‘lganda Cu elementining akkumulyatsiya qilinishi Co, Pb, Cd elementlariga nisbatan yuqori bo‘lishi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar uchun gumus va oziqa elementlar bilan ta’minlanganlik bo‘yicha agroximkartogrammalari hamda ifloslanish darajasi bo‘yicha ekologik kartalari tuzilganligi, fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan tuprog‘ida o‘g‘itlarni maqbul meyor va muddatlarda qo‘llash orqali tuproqlarni agrokimyoviy holatini yaxshilashga, toksikantlar bilan ifloslanish holatiga ko‘ra kimyoviy elementlarni kam akkumulyatsiya qiluvchi o‘simgiklarni tanlab ekish, tuproqlarning ifloslanishini oldini olishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning agroekologik holati, mosh va loviya ekinlarida og‘ir metallarning akkumulyatsiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Nurobod tumani «Sirojiddin dalasidagi chorva» fermer xo‘jaligi maydoni tuproqlarining 1 metrli qatlampagi mis, qo‘rg‘oshin, kadmiy hamda xrom elementlarini o‘rtacha miqdorini aks ettiruvchi 1:5000 masshtabli ekologik kartasi fermer xo‘jaligining 96,2 ga maydonida amaliyatga joriy etilgan (Qishloq xo‘jalik vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/05-02-862-son ma’lumotnomasi). Natijada, fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan tuproqlarini toksikantlar bilan ifloslanish holatiga ko‘ra kimyoviy elementlarni kam akkumulyatsiya qiluvchi o‘simgiklarni tanlab ekish hamda

tuproqlarning ifloslanishini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazilishga imkon bergen;

Nurobod tumani «Sirojiddin dalasidagi chorva» fermer xo‘jaligining 1:5000 masshtabli agroximkartogrammalari fermer xo‘jaligining 96,2 hektar maydoniga amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jalik vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/05-02-862-son ma’lumotnomasi). Natijada, fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarini gumus va oziqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq holda o‘g‘itlarni maqbul me’yor va muddatlarda qo‘llash orqali tuproqlarni agrokimyoviy holatini yaxshilash imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 6 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, uslublari, obyekti va predmetlari tavsiflangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tuproqlarning agroekologik holati, dukkakli ekinlarda toksik elementlarning to‘planishi (Adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobida, tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, mavzu doirasida xorijiy va respublikamizda olib boriligan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari yoritilgan, ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Sug‘oriladigan tuproqlarda og‘ir metallarning to‘planishi, tuproq xossalariaga bo‘lgan ta’siri, ularning toksikantlik xususiyati, tuproq unumdorligiga ta’siri bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Sug‘orma dehqonchilik hududlari yerlarning og‘ir metallar bilan ifloslanish darajasini aniqlash va ularning unumdorligini qayta tiklashda qo‘llaniladigan chora-tadbirlarining afzallikkabi, tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va boshqa xossalariaga bo‘lgan ta’siri, toksik moddalarning qishloq xo‘jalik ekinlari organlarida akkumulyatsiyalanishi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari atroflicha tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotning ob'yekti va izlanishlarning olib borilishi tartibi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan joyning geologik, geomorfologik, iqlim sharoitlari, o'simlik dunyosi va inson faoliyatining ta'siri to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar Nurobod tumanidagi «Sirojiddin dalasidagi chorva» fermer xo'jaligining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarida olib borilgan, tadqiqotlar davomida tuproqshunoslikda umum qabul qilingan standart uslublarda olib borilgan.

Laboratoriya tajribasi (1-jadval) och tusli bo'z va tipik bo'z tuproqlarda 25x20 sm, tuproq og'irligi 2,8 kg bo'lgan gul tuvaklarda olib borilagan.

Laboratoriya tajribasini o'tkazish uchun tipik bo'z tuproqlar tarkibi 7 turdag'i og'ir metallar (Cr, Ni, Cd, Co, Pb, Cu, Zn) bilan sun'iy ravishda ruxsat etilgan miqdor (REM)dan 3 va 5 marta ko'p bo'lgan kimyoviy tuzlar bilan ifloslantirildi.

Og'ir metallarning tuproq uchun ruxsat etilgan me'yorlaridan (REM) kelib chiqib, dukkanakli

ekinlarda toksikantlarni akkumulyatsiyasini kuzatish mosh va loviya o'simliklarida olib borildi. Tajriba sxemasi 2-jadvalda ko'rsatilgan.

Nurobod tumani «Sirojiddin dalasidagi chorva» fermer xo'jaligida tarqalgan tabiiy holatdagi tuproq namunalarida laboratoriya tajribalari qo'yildi. Tajriba variantlari 4 qayta-riqda olib borildi (2-jadval).

Dala sharoitida dukkanakli ekinlar bilan tajriba o'tkazish uchun O'zPITI tomonidan ishlab chiqilgan «Dala

tajribalarining o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma» asosida, har bir dukkanakli ekin 70x10-1 sxemada, har bir variant 4 qator bo'lib, uzunligi 20 m, eni 2,80 m, bir variantning bitta qaytarig'inining maydoni $56,0 \text{ m}^2$ bo'lib, dala tajribalari ikki variant va 4 qaytariqda olib borildi ($56 \times 4 = 224 \text{ m}^2$, $224 \times 2 = 448 \text{ m}^2$). Tajriba ikki turdag'i o'simliklarda o'tkazildi, umumiyligi maydon $896,0 \text{ m}^2$ ni ($448 \times 2 = 896,0 \text{ m}^2$) tashkil qildi (3-jadval).

1-jadval

Tajriba variantlari

Nº	Variantlar
1	Tuproq (nazarat) + o'simlik (O')
2	Tuproq+(Mosh uchun N ₅₀ P ₆₀ K ₈₀ , Loviya uchun N ₆₀ P ₆₀ K ₈₀) (Fon) + O'
3	Fon+Cr REM (3 barobar ko'p) + O'
4	Fon+Cr REM (5 barobar ko'p) + O'
5	Fon+ Ni REM (3 barobar ko'p) + O'
6	Fon+ Ni REM (5 barobar ko'p) + O'
7	Fon+ Cd REM (3 barobar ko'p) + O'
8	Fon+ Cd REM (5 barobar ko'p) + O'
9	Fon+ Co REM (3 barobar ko'p) + O'
10	Fon+ Co REM (5 barobar ko'p) + O'
11	Fon+ Pb REM (3 barobar ko'p) + O'
12	Fon+ Pb REM (5 barobar ko'p) + O'
13	Fon+Cu REM (3 barobar ko'p) + O'
14	Fon+ Cu REM (5 barobar ko'p) + O'
15	Fon+ Zn REM (3 barobar ko'p) + O'
16	Fon+ Zn REM (5 barobar ko'p) + O'
17	Fon+kompleks ta'sir (3 barobar ko'p) + O'
18	Fon+kompleks ta'sir (5 barobar ko'p) + O'

Izoh: Tajriba 4-qaytariqda olib borildi

2-jadval

Daladan olib kelingan tuproq misolida

Nº	Variantlar (4 qaytariqda).
1	Tuproq+mosh (nazarat)
2	Tuproq+loviya (nazarat)
3	Tuproq+N ₅₀ P ₆₀ K ₈₀ +mosh
4	Tuproq+N ₆₀ P ₆₀ K ₈₀ +loviya

Dala va laboratoriya natijalarini tahlillari: 1-variant nazorat, 2-variant mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, 3-4-variantlar har bir elementlarni alohida REMlardan 3 va 5 barobar ortiq ifloslantirish, 5 va 6-variantlar kompleksli bo‘lgan 3 va 5 barobar ortiq ifloslfntirish, 7-8-variantlar daladan keltirilgan tabiiy tuproqlarga mineral o‘g‘itlar berilmagan va mineral o‘g‘itlar berilgan, 9-variant dala tajribasining mineral o‘g‘itlar bilan ishlov berilmagan hamda 10-variant, ya’ni, mineral o‘g‘itlar berilgan variantlar asosida olib borildi.

3-jadval

Mosh va loviya ekinida olib boriladigan dala tajriba tizimi

Variantlar	Qo‘llanilgan mineral o‘g‘it meyorlari, kg	Qo‘llash muddatlari, kg		
		Ekishdan oldin	4-5 chin barg davrida	Mevalash davrida
Mosh ekinida olib boriladigan dala tajriba tizimi				
1	Nazorat	-	-	-
2	N ₅₀ P ₆₀ K ₈₀	P ₆₀ K ₈₀	N ₂₀	N ₃₀
Loviya ekinida olib boriladigan dala tajriba tizimi				
1	Nazorat	-	-	-
2	N ₆₀ P ₆₀ K ₈₀	P ₆₀ K ₈₀	N ₂₅	N ₃₅

Dissertatsiyaning «**O‘rganilgan hududning agroekologik holati**» deb nomlangan uchinchi bobida, Samarqand viloyati Nurobod tumanining tabiiy sharoitlari, relefi haqida ma’lumot berilgan. Tuman, asosan, yassi tog‘lik, tekislik, adir va qirlardan iborat. Tumanda «Uran» zaxiralarini qazib olinishi natijasida tabiiy yer osti boyliklari bilan birgalikda atrof-muhitga tashlanayotgan toksik moddalar ta’sirida qishloq xo‘jalik mahsulotlariga qisman zarar yetkazilgan. Bundan tashqari, tabiiy boyliklar mavjud bo‘lgan barcha hududlarda tabiiy toksik ta’sir etuvchi elementlar bilan tabiiy ifloslanish vujudga kelgan.

«O‘rganilayotgan hudud tuproqlarining xossa-xususiyatlari» deb nomlangan 3.2-§ da, Samarqand vohasining litologik va geomorfologik sharoitlarining ta’riflari keltirilgan. Samarqand vohasi to‘rtlamchi davrda shakllangan turli yoshdagи eroziya-akkumulyativ shakllanishlar ketma-ketligi, yuqori Zarafshon terrassasi biroz boshqacha, yosh jinslarning qalin lyossli qatlamidan iborat bo‘lib, Mirzacho‘l «Golodnostep» kompleksi bilan bir xil ekanligi e’tirof etilgan, viloyatning tuproq qoplamlari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Dala tadqiqotlari o‘tkazilgan maydon tuproqlarining umumiyl tavsifi**» deb nomlangan to‘rtinchи bobining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning mexanik tarkibi deb nomlangan 4.1-§ da tuproqning mexanik tarkibi batafsil ta’riflangan bo‘lib, fizik loy (<0,01 mm) zarrachalarining miqdori 20,9-43,3 foizni tashkil etadi, asosan yengil va o‘rta qumloqlardan iborat. Ta’riflangan tuproqlarning mexanik tarkibi yirik chang fraksiyalariga boyib borishi bilan tavsiflanadi. Ularning miqdori yuqorigi ikki metrli qatlamda 50,0-55,8 dan 61,2-69,9 foizgacha o‘zgarib turadi. Ikkinci o‘rinda 10,1-32,4 foizni o‘z ichiga olgan o‘rta chang zarralari turadi. O‘rta va yengil qumoqlardan tashkil topgan, tuproqlarining ustki 0-100 sm lik qatlamida fizik loy zarrachalarining miqdori 29,7-

43,25 foizni, pastki qatlam tomon 20,9-24,95 foizni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

«Suvda oson eruvchi tuzlar miqdori, sho'rlanish darajasi, tiplari, umumiyl va zaharli tuzlar zaxiralari» deb nomlangan 4.2-§ da och tusli bo'z tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamiyagi suvda eruvchan tuzlarning miqdori yoritilgan. O'rganilgan hududda tarqalgan tuproqlar asosan, sho'rlanmagan, kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan ayirmalarga mansub, sho'rlanish tipiga ko'ra sulfatli va xlorid-sulfatli tipda ekanligi aniqlandi. Masalan: 19 va 25B- kesmalarning 0-30 smlik qatlamiyagi quruq qoldiq 0,160 dan 0,178 foizgacha miqdorlarni tashkil etdi. 19B-24B-kesmada esa 0,328-0,485% oralig'ida tebranib, kuchsiz darajada sho'rlangan, ba'zan 150-200 sm lik qatlamida o'rtacha darajada (1,365-1,470%) sho'rlangan. 22-kesmada quruq qoldiq 0,105 foizdan oshmaydi. Mos ravishda ushbu kesmalarda xlor – 0,052-0,059%, sulfatlar – 0,443-0,813% ni tashkil etdi.


«Tuproqning agrokimyoviy xossalari» deb nomlangan 4.2-§ da sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda gumus miqdori 0,141-0,191 foizdan 0,539-0,911 foizgacha bo'lgan oraliqda tebranib, gumus bilan kam (0,5-1,0%) ta'minlangan guruhga mansub. Tuproq kesmalarining haydov osti qatlamidan pastki qatlamlar tomon gumus quyidagicha ko'rsatgichlarda ekanligi aniqlangan; 0,341-0,661%, 0,251-0,401%, 0,241-0,375%, 0,191-0,330%, 0,141-0,308%. 200 santimetrgacha tuproq namunalari olingan asosiy kesmalarning qatlamlari bo'yicha o'rtacha gumus holati 0-30 smlik qatlamiyagi 0,735 foizdan pastki qatlamlar tomon 0,204% gacha kamayib bordi.

Umumiy azotning haydalma qatlamiyagi eng yuqori ko'rsatkichi 0,071% bo'lib, pastki qatlam tomon 0,013 foizgacha kamayib borishi kuzatildi. Uglerodning azotga bo'lgan nisbati (C:N) 7,2 ga teng. Umumiy kaly 0-30 smlik haydov qatlamlarda 1,43-1,97 foizni, harakatchan fosfor miqdoriga 18,78-26,39 mg/kg ni, almashinuvchi kaly miqdori esa 257-346 mg/kg ni tashkil etdi, o'rtacha va yuqori ta'minlangan tuproqlar hisoblanadi.

Hudud tuproqlarining agrokimyoviy xossalari asosida ya'ni gumus hamda harakatchan shakldagi PK elementlari bilan ta'minlanishiga ko'ra, agrokimyoviy kartogrammalar tuzilgan. Gumus holatiga ko'ra tuproqlar kam (3,5 ga), o'rtacha – (82,9 ga), va yuqori – (9,7 ga), harakatchan K₂O bilan kam –(13,5 ga), o'rtacha – (48,7 ga), yuqori – (28,8 ga), va juda yuqori – (5,3 ga), ta'minlangan, hududning o'rganilgan 96,2 hektar maydonida esa P₂O₅ bilan juda kam ta'minlangan.

Dissertatsiyaning **«Hudud tuproq va suvlari tarkibida toksik elementlar bilan ifloslanishi bo'yicha olingan natijalar va ularning tahlili»** deb nomlangan beshinchi bobining **5.1-§** da **«Tuproq qatlamlarida og'ir metallarning to'planishi»** to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, asosan harakatchan shakldagi elementlar (Cr, Ni, Cd, Co, Pb, Zn va Cu) aniqlangan. Olingan natijalarga ko'ra, xrom, mis, qo'rg'oshin va kadmiy elementlarining miqdori tuproq kesmasining ustki 0-100 smlik va pastki qatlamlarida ham harakatchan shakli REM dan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tuproqdagi tarkibida Cr ning harakatchan shakli uchun REM 6 mg/kg bo‘lib, qatlamlar bo‘yicha o‘rtacha miqdori 19-kesmada REMdan 3,99 marta ko‘p, 20-kesmada $24,01\pm14,29$ mg/kg, 21-kesmada $26,61\pm11,06$ mg/kg da ekanligi aniqlandi. 22-23 kesmalarda $20,61\pm3,89$ va $23,22\pm9,70$ mg/kg oralig‘ida kuzatilib, REMdan 3,43-3,87 martaga ko‘p ekanligi hamda olingan kesmalardan biroz yuqori, 24-25 kesmalarda esa o‘rtacha kattalikda bo‘lib, REMdan 4,01-3,0 martagacha yuqori ekanligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Tuproqning 200 sm qatlamlarida xrom elementining o‘rtacha miqdori, mg/kg

Cu tanlangan 7 ta asosiy hamda 14 ta yordamchi kesmalarning 0-30, 30-50, 50-80 hamda 80-100 smlik qatlamlaridan olingan tahlil natijalarining o‘rtacha kattaliklari aniqlandi. 0-30 sm ik haydov qatlamlarida elementlarning REMdan $1,57\rightarrow2,03$ marta yuqori, Cd (REM 0,5 mg/kg), 19-kesmada yuqori miqdorda ifloslanish, 20-kesmasining 150-200 sm qatlamida REMdan 1,92 martaga yuqori ifloslanish holati kuzatildi.

Co ning (REM 5 mg/kg) ushbu tuproqlarda REMdan kam ekanligi, pastki qatlamlada REMdan esa 0,2-0,3 martada kam ekanligi kuzatildi. 0-30 va 80-100 sm li qatlamlarda 1,46 hamda 1,48 mg/kg atrofidagi eng yuqori kattalikda uchrab, REMdan past ko‘rsatkichlari aniqlandi va xulosa o‘rnida bu elementning harakatchan shakli bilan barcha kesmalarda zararlanish uchramaganligi aniqlandi.

Ni (REM 4 mg/kg) 19 hamda 24-kesmalarning 50-80 sm qatlamlarida $3,90\pm3,82$ mg/kg miqdorlarda ekanligi, qo‘rg‘oshinning (REM 6 mg/kg) kam miqdorda bo‘lsa ham, REMdan yuqori ekanligi aniqlandi. 19-kesmaning 0-30 hamda 50-80 smlik qatlamlarida $7,48\pm7,10$ mg/kg, 21-kesmada esa $7,61\pm7,07$ mg/kg, 25-kesmaning barcha qatlamlarida REMdan $1,0\pm1,14$ martagacha ko‘p.

Tuproqning pastki qatlamlari tomon qo‘rg‘oshinning yuvilib to‘planishi kuzatildi, kesmalarning pastki 100-150 va 150-200 smlik qatlamlarida $8,98\pm7,23$ mg/kg dan $6,03\pm8,29$ mg/kg, 150 sm qatlamlarida esa $9,62\pm10,71$ mg/kg gacha bo‘lgan yuqori miqdorlari aniqlandi.


Zn elementining (REM 23 mg/kg) miqdorining 25-kesmada qatlamlar bo‘yicha quyidagicha ortib borishi $4,39\pm11,76$ mg/kg va REMdan $0,19\pm0,51$ marta kamligi aniqlandi. Xrom va mis REMdan yuqori bo‘lib, barcha

kesma qatlamlarida xrom boshqa elementlarga nisbatan REMlardan quyidagicha: 0-30 sm – 2,10-6,77; 30-50 – sm 2,50-5,58; 50-80 – sm 2,22-7,32; 80-100 sm – 2,42-4,85 martagacha yuqori.

Hudud tuproqlarining harakatchan shakldagi kimyoviy elementlar og'ir metallar bilan ifloslanishi ekologik kartasiga ko'ra, Cr bilan ifloslanmagan yer maydonlari – 19,33 ga, kam ifloslangan – 6,1 ga, o'rtacha ifloslangan – 32,85 ga, kuchli ifloslangan 37,86 ga; Pb elementi bilan ifloslanmagan – 9,46 ga, kam ifloslangan – 51,61 ga, o'rtacha ifloslangan – 35,08 ga; Cd bilan ifloslanmagan – 30,02 ga, kam ifloslangan 36,0 ga, o'rtacha ifloslangan – 30,13 ga; Cu bilan esa jami 96,2 ga maydon o'rtacha ifloslangan.

Dala tajriba maydonida Cr 14,08-22,95 mg/kg oralig'ida bo'lib, 46-79 sm qatlamda 3,83 barobarga, mis miqdori tuproqning haydov (0-30sm) qatlamida 13,62 mg/kg bo'lib, pastki qatlamlar tomon REMdan 2,72 martaga yuqori, Ni elementining eng yuqori akkumulyatsiyasi tuproqning 135-200 smlik qatlamida 11,48 mg/kgni tashkil etdi. Tuproq qatlamlari bo'ylab REMlardan 2,28-2,87 martaga, Pb esa REMdan 1,55-1,51 martaga ortib borishi aniqlandi (2-rasm).

Xulosa qilib aytganda, tajriba dalasidagi tuproqlar og'ir metallar Cd, Co hamda Zn elementlari bilan REMlar ko'rsatgichlaridan kam ekanligi, Cr → Cu → Ni → Pb elementlari bilan ifloslanish REMdan yuqori ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Nurobod tumani «Sirojiddin dalasidagi chorva» f/x ning dala maydoni tuprog'laridagi og'ir metallarning akkumulyatsiyasi, mg/kg

«**Sug'orish suvlari tarkibidagi og'ir metallarning miqdoriy ko'rsatkichlari**» deb nomlangan 5.2-§ da Nurobod tumanining sug'orish suvlarida xrom elementning REM ko'rsatkichlaridan kam ekanligi, ya'ni 0,125-0,205 mg/l atrofida; nikel 6 uchun REM 0,1 mg/l bo'lib, barcha suv namunalarida nikel elementining REMdan ortiq ekanligi aniqlandi. Eng yuqori ko'rsatkich 2021-yilning sug'orish suvida 0,20 mg/l bo'lib, REMdan 2 marta yuqori, mis uchun REM 1,0 mg/kg bo'lib, sug'orish suv namunalarida 0,04 mg/l, 2022-yilda 0,145 mg/l da ekanligi bilan REMdan 1,45 martaga, 2023-yilda esa 0,140 mg/l da miqdorda ekanligi va REMdan 1,40 martaga yuqori ekanligi aniqlandi.

Ruxning (REM 1,0 mg/l) 1 litr suvgaga 0,130-0,140 mg/l ekanligi qayd etildi, kobaltning miqdori toksikantlarga nisbatan (REM 0,1 mg/l) bir oz yuqori ekanligi aniqlandi. Co barcha suv namunalarida o‘rtacha 0,220-0,135 mg/l, REMdan 2,20-1,35 martaga yuqori. Nurobod suv omboriga kirayotgan suv namunalarida o‘rtacha 0,135 mg/l Co elementi mavjudligi aniqlandi va bu, REMdan 1,35 martagacha yuqori. Kadmiy (REM 0,001 mg/l) 2021-2023-yillarda keltirilgan sug‘orish suvlarida 0,001-0,0017 mg/l, va REMdan 1,0-0,9-1,68 martaga yuqori ekanligi aniqlandi. Qo‘rg‘oshin (REM 0,03 mg/l) elementi bilan ifloslanish sug‘orish suv namunalarida REMdan yuqori ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «**Og‘ir metallarni o‘simlik urug‘ining unib chiqishiga, ildiz sistemasiga, mosh va loviya ekinlarini organlarida akkumulyatsiyasi va tuproqdagi qoldiq miqdoriga ta’siri**» deb nomlangan oltinchi bobining 6.1-§ da og‘ir metallarning dukkakli o‘simliklar urug‘larining unub chiqishga, ildiz tizimiga, ko‘rsatadigan toksik ta’siri keltirilgan.

Mosh urug‘i suniy 3 barobar ifloslantirilgan muhitda nazoratga nisbatan 0,63 sm ga, 5 barobar ifloslantirilgan muhitda esa 0,91 sm past o‘sganligi kuzatildi. Kompleks ta’sir ettirilganda esa, bu holat 0,95-1,49 sm past o‘sganligini ko‘rsatdi. Loviya ekinida ham eng kuchli ta’sir rux elementi va kompleks ta’sir ettirilgan variantlarda bo‘ldi. Mosh o‘simgi urug‘ining unuvchanligiga barcha elementlar 3 va 5 barobar ifloslantirilgan muhitda o‘stirilganda nazoratga nisbatan past o‘sdi.

Og‘ir metallar bilan 5 barobar ifloslantirilganda hamda kompleks ta’sir ettirilganda mosh urug‘ining o‘sib rivojlanishiga ko‘proq ta’sir etganligi aniqlandi. Dukkakli ekinlar urug‘larini elementlarning kompleks ta’sirlarda ildizning shakllanishi va o‘sib rivojlanishida moshda – 1,49 sm ga, loviyada – 0,60 sm ga past o‘sishi kuzatildi. Urug‘larni o‘sib rivojlanishiga toksikantlar moshga loviyaga nisbatan salbiy ta’sir etganligi aniqlandi.

«Og‘ir metallarning mosh va loviya ekinlari tomonidan akkumulyatsiyalanishi» deb nomlangan 6.2-§ da, tajribalar uchun tanlangan elementlarning o‘simlik organlarida akkumulyatsiyasi ma’lumotlari keltirilgan. Bunda xrom (Cr) ioni nazorat varianti tuproqlaridagi loviya o‘simgi ildizlarida birinchi yilda 2,158-1,781 mg/kg miqdorida to‘plangan. Mosh o‘simgida esa 1,159-0,276 mg/kg oralig‘ida akkumulyatsiyasi kuzatildi.

Cr REMdan 3 barobar ortiq ta’sir ettirilgan holatda, loviya ildizlarida 3-variantda birinchi yilda 3,861 mg/kg, ikkinchi yilda bu ko‘rsatkich 25,97-3,21mg/kg miqdorda to‘plangan. Mosh o‘simgida esa 5,854-4,102 mg/kg akkumulyatsiyalanish kuzatildi. 5 barobar ifloslantirilganda loviya ildizlarida birinchi yilda 42,97-6,41mg/kg, mosh o‘simgida esa yillar davomida 15,51-5,19 mg/kg atrofida akkumulyatsiyalanish qayd etildi.

Sun‘iy ifloslantirilgan variantlarda loviyaning ildizlarida o‘rtacha 8,50 mg/kg akkumulyatsiyalanish kuzatildi. REMdan o‘rtacha 2,31 marta yuqori bo‘lganda esa 4,0 mg/kg nikel ioni o‘zlashtirdilgan. Mosh o‘simgida ham aynan loviya ildizlari kabi akkumulyatsiya kuzatildi.

Dukkakli o‘simliklarda Cd ning REM ko‘rsatkichlari 0,1 mg/kg bo‘lib, loviya ekilgan 3-variantdagи tuproqlarda mavsumlar bo‘yicha ildiz sistemasida 27,05 → 23,60 martaga, 4-variantda 39,43 → 41,09 → 4,13 martagacha,

5-variantda esa REMdan 3 marta ortiq bo‘lganda 11,32 → 2,48 martaga, 6-variantda 27,17 → 2,93 martaga ortib borish kuzatildi.

Kobaltning (REM 10 mg/kg) mosh va loviya o‘simpliklari ekilganda faqatgina 5 barobar kompleks ifloslantirilgan 6-variantlarida REMga yaqin 10,25-9,92 mg/kg oraliq‘ida kuzatildi, loviyada esa 7,83-7,79 mg/kg to‘planganligi aniqlandi.

